

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc)  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**ASRONOVA MOXIGUL MUSABOYEVNA**

**XUSUSIY DISKURS INDIVIDUALLIGINI TA'MINLOVCHI LISONIY  
VOSITALAR (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**Asronova Moxigul Musaboyevna**

Xususiy diskurs individualligini ta’minlovchi lisoniy vositalar (o‘zbek va ingliz tillari misolida) ..... 3

**Асронова Мохигул Мусабоевна**

Языковые средства, обеспечивающие индивидуальность частного дискурса (на примерах узбекского и английского языков)..... 33

**Asronova Moxigul Musaboyevna**

Linguistic tools ensuring the individuality of private discourse (examples from uzbek and english)..... 67

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 72

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc)  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK KENGASH  
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

---

**ASRONOVA MOXIGUL MUSABOYEVNA**

**XUSUSIY DISKURS INDIVIDUALLIGINI TA'MINLOVCHI LISONIY  
VOSITALAR (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil830 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz va rus (rezume) tillarida) Andijon davlat chet tillari instituti web-sayti (www.adhti.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Raupova Laylo Rahimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Hamroyeva Shahloxon Mirdjanovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Mehrinigor Bahodirovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik kengashning 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374) 223-42-76; faks: 0(374) 223-42- 76; e-mail: info@asifl.uz.).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel:0(374) 223 42 76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**D.A.Rustamov**

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, f.f.d. (DSc), professor

**A.Dj.Atabayev**

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, f.f.f.d., (PhD)

**M.A.Abduvaliyev**

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida xususiy diskursning individualligini ta'minlaydigan lingvistik vositalarni o'rganish zaruriyatining qator sabablari mavjud. Birinchidan, tilning individualligi shaxsning o'ziga xosligini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Kishilar o'ziga xos muloqot usuli orqali o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, e'tiqodlari, shuningdek, turmush tarzi va dunyoqarashini ifoda etadi. Xususiy diskurs individualligini aks ettiruvchi lingvistik vositalarni o'rganish tilshunos va psixologlarga inson tilining tuzilishi, funksiyasini tushunishga yordam beradi. Bu esa nazariy va tatbiqiy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida individual til xususiyatlarini tahlil qilish, sharhlash qobiliyati tilshunoslik hamda psixologiyada matn va og'zaki nutq bilan yanada samarali ishlash, ularning ma'nosi va kontekstini tushunish, shuningdek, muallif yoki ma'ruzachining individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradigan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususiy diskurs individualligini ta'minlaydigan lingvistik vositalarni o'rganishning dolzarbligi kishilar muloqotini tushunish va rivojlantirish, tilshunoslik va psixolingvistika sohasidagi ilmiy bilimlarni boyitish, shuningdek, matn va og'zaki nutqni tahlil qilish, sharhlash samaradorligini oshirish bilan muhimlik kasb etadi.

Mamlakatimiz nazariy tilshunosligi va psixolingvistikasida xususiy diskursning individualligini ta'minlovchi lingvistik vositalarni o'rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar mavjud. Darhaqiqat, "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash"<sup>1</sup> maqsadida tilning xususiy va ijtimoiy diskurs o'zaro munosabatining nazariy va amaliy muammolarini yechishni taqozo etadi. Turli lingvistik yondashuvlar va metodologiyalar doirasidagi ko'plab tadqiqotlar xususiy nutqning individualligini ta'minlaydigan lingvistik vositalarning xususiyatlari, ularning lingvistik muloqotdagi roli haqidagi bilimlarni kengaytirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek va ingliz tilida xususiy diskurs individualligini ta'minlovchi lisoniy vositalarni qiyosiy o'rganish amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan mazkur dissertatsiya mavzusi dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони // [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)

sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Jahon tilshunosligida diskurs, uning instusional ko‘rinishlari va tasnifi, umumiy va xususiy diskursning lingvistik xususiyatlari, xususiy diskurslarning lingvomadaniy, lingvopragmatik, stilistik xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarda, jumladan, Oxford University (Buyuk Britaniya), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Boston University, University of New York, University of Pennsylvania, University of California (AQSH); Indiana University (AQSH), The University of Sorbonne (Fransiya), Upsalla universiteti (Shvesiya), Kiofo University (Yaponiya), Australian National University (Avstraliya), Istanbul texnika universiteti (Turkiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Moskva davlat lingvistika universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Ural davlat pedagogika universiteti, Xarkov davlat pedagogika universiteti (Ukraina), Baki Dövlət universiteti (Ozarbayjon), Qirg‘iziston davlat texnika universiteti (Qirg‘iziston davlat texnika universiteti) shuningdek, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Andijon davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Termiz davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida diskursning institusional xususiyatlari aniqlangan (Myunxen universiteti), diskurs tahlilning siyosiy aspektlari o‘rganilgan (Olbani, AQSH), diskurs tahlil va pragmatika munosabati aniqlangan (Madrid, Ispaniya), siyosiy diskursni tahlil qilish bosqichlari tavsiflangan (Kataniya, Italiya), siyosiy nutqlarni lingvistik tahlil qilish metodikasi aniqlangan (Michigan universiteti, AQSH), siyosiy diskurs lingvistik tadqiq obyekti sifatida o‘rganilgan (Ural federal universiteti), siyosiy diskursning konstanta konseptlari aniqlangan (Sankt-peterburg davlat universiteti), siyosiy diskursning lingvistik xususiyatlari

---

<sup>2</sup> Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи [google.scholar.com](http://google.scholar.com)., [cheloveknauka.com](http://cheloveknauka.com), [dslib.net](http://dslib.net), [reseachgate](http://reseachgate). [www.kaznu.kz](http://www.kaznu.kz), [bloombsury.com](http://bloombsury.com), [www.utexas.edu](http://www.utexas.edu), [english.pku.edu.cn](http://english.pku.edu.cn), [www.lang.ox.ac.uk](http://www.lang.ox.ac.uk), [www.bu.edu](http://www.bu.edu), [americanenglish.state.gov](http://americanenglish.state.gov), [micros.uz](http://micros.uz), [www.uv.es](http://www.uv.es), [www.zora.uzh.ch](http://www.zora.uzh.ch), [clea@snu.ac.kr](mailto:clea@snu.ac.kr), [www.ras.ru](http://www.ras.ru), [adwww.ecu.edu.au](http://adwww.ecu.edu.au), [www.sophia.ac.jp/eng](http://www.sophia.ac.jp/eng); [www.msu.ru](http://www.msu.ru); [www.vsu.bu](http://www.vsu.bu); [www.education.ua/universities](http://www.education.ua/universities), [www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz). (Murojaat sanasi: 14.06.2024)

aniqlangan (Minsk davlat universiteti), siyosiy diskursning politologiya obyekt sifatida tadqiqi amalga oshirilgan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti).

Diskursning lingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, o'zbek tilida diskursiv markerlar (diskursning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi birliklar) aniqlangan (Samarqand davlat universiteti), dialogik diskursning sotsiopragmatik xususiyatlari (O'zbekiston milliy universiteti), xususiy diskurslarning lingvomadaniy talqini o'rganilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti), ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida siyosiy diskurs evfemizmlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari (Farg'ona davlat universiteti), siyosiy diskursning nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi o'rganilgan (Andijon davlat universiteti).

Jahon tilshunosligida xususiy diskurslar qiyosiy-chog'ishtirma aspektida ham o'rganilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligi<sup>3</sup>da kognitiv-pragmatik tahlilga, ayniqsa, xususiy diskursga<sup>4</sup> alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, N.V.Danilova, L.A.Visyuk, M.L.Stepkoning ishlarida<sup>5</sup> xususiy diskursni ko'rsatuvchi lingvistik vositalar o'rganilgan. Tibbiy diskurs tadqiqiga bag'ishlangan ishlar sirasida M.I.Barsukova<sup>6</sup>, M.M. Van Nayersen<sup>7</sup>, L.S.Beylinson<sup>8</sup>, L.Vid<sup>9</sup>, S.Reyser<sup>10</sup>, E.Sigler<sup>11</sup> kabi olimlar; siyosiy diskurs masalalarida V.Z.Demyankov<sup>12</sup>, R.Rathmayr<sup>13</sup>, J.Molvert<sup>14</sup>; iqtisodiy diskurs

---

<sup>3</sup> Candlin C.N. Introduction / Research and Practice in Professional Discourse / C.N. Candlin; ed. by C. Candlin. – Hong Kong: City University of Hong Kong Press, 2002. – P. 1-39.

<sup>4</sup> Bargiela, F. Business Discourse across 'cultures': data selection, collection and analysis / F. Bargiela. – Warwick, 2010.; Bargiela-Chiappini, F. The Handbook of Business Discourse / F. Bargiela-Chiappini. – Edinburgh University Press, 2009. – 520 p; Bargiela-Chiappini, F., Nickerson, C. Business discourse: Old debates, new horizons / F. Bargiela-Chiappini, C. Nickerson // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 2002. – Vol. 40, Issue 4. – P. 273-286.

<sup>5</sup> Данилова Н.В. Средства выражения авторского мнения в научно-популярном дискурсе / Н. В. Данилова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2018. – № 23 (209). – С. 438-441. URL: <https://moluch.ru/archive/209/51245/> (Дата обращения: 26.02.2024).; Вицюк Л.А. Лексико-семантические и синтаксические средства реализации ложного дискурса: на материале русского и английского языков: Дисс. канд. филол. наук: – Майкоп, 2010. – 146 с. // <http://www.dslib.net/jazyko-znanie/leksiko-semanticheskie-i-sintaksicheskie-sredstva-realizacii-lozhnogo-diskursa-na.html>; (Дата обращения: 13.05.2023).; Степко М.Л. Речевые средства выражения инвективных смыслов в жанре комментария публицистического дискурса: на материале современного английского языка: Дисс... канд. филол. наук: – Майкоп, 2008. – 195 с. // <http://www.dslib.net/jazyko-znanie/rechevye-sredstva-vyrazhenija-invektivnyh-smyslov-v-zhanre-kommentarija.html> (Дата обращения: 13.05.2023).;

<sup>6</sup> Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: Автореф. дисс... канд. филол. наук [Текст] / М.И.Барсукова. – Саратов, 2007. – 21 с.

<sup>7</sup> Van Naerssen M.M. Medical Records: One Variation of Physician's Language // International Journal of the Sociology of Language. 1985. № 51. – P. 43-73.

<sup>8</sup> Бейлинсон Л.С. Характеристики медико-педагогического дискурса (на материале логопедических рекомендаций): дисс. канд. филол. наук: 10.02.01 / Любовь Семеновна Бейлинсон. – Волгоград, 2001. – 177 с.

<sup>9</sup> Weed L. Medical records that guide and teach // New English Journal of Medicine. 1968. № 278. – P. 593-600; Medical Records, Medical Education and Patient Care. Cleveland: The Press of Case Western Reserve University, 1969; Medical records, patient care, and medical education // Irish Journal of Medical Science. 1964. Vol. 39. № 6. – P. 271-282.

<sup>10</sup> Reiser S.J. The Clinical Record in Medicine. Part 1: Learning from Cases // Annals of Internal Medicine. 1991. Vol. 114. № 10. – P. 902-907.

<sup>11</sup> Siegler E. The Evolving Medical Record // Annals of Internal Medicine. 2010. Vol. 153. № 10. – P. 671-677.

<sup>12</sup> Демьянков В.З. Политический дискурс как предмет политологической филологии // <http://www.infolex.ru/PolDis.html> (Переработанная версия статьи: Политический дискурс как предмет

muammolari yechimida V.Krisov<sup>15</sup>; M.Likun<sup>16</sup>; Ye.A.Logunova<sup>17</sup>; Ye.Yu.Maxniskaya<sup>18</sup>; A.A.Muradyan<sup>19</sup>; A.A.Sheremetyeva<sup>20</sup>; A.B.Bushev<sup>21</sup>, N.N.Bulanova<sup>22</sup>ning tadqiqotlari ahamiyatga molik.

Kognitiv tilshunoslik muammolari o'zbekistonlik olimlar A.A.Abdiazizov, D.U.Ashurova, R.X. Shirinova, O'K.Yusupov, J.A.Yoqubov, I.M.Tuxtasinov, M.V.Ergasheva<sup>23</sup>, Sh.S.Safarov<sup>24</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada tadqiq etilgan. Sh.Safarov diskursning lingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, o'zbek tilida diskursiv markerlar (diskursning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi birliklar<sup>25</sup>, L.Raupova dialogik diskursning sotsiopragmatik xususiyatlari<sup>26</sup>, G.Odilova xususiy diskurslarning lingvomadaniy talqini<sup>27</sup>ni

---

политологической филологии // Политическая наука. Политический дискурс: История и современные исследования. М.: ИНИОН РАН, 2002. № 3. С.32-43.)

<sup>13</sup> Rathmayr R. 1995 – Neue Elemente im russischen politischen Diskurs seit Gorbatschow // R. Wodak, F.P. Kirsch eds. Totalitäre Sprache – langue de bois – language of dictatorship. – Wien: Passagen, 1995. –s.195-214.

<sup>14</sup> Volmert J. 1989 – Politikrede als kommunikatives Handlungsspiel: Ein integriertes Modell zur semantisch-pragmatischen Beschreibung öffentlicher Rede. – München: Fink, 1989.

<sup>15</sup> Крысов В. Развитие экономических дискурсов: какую реальность изучает экономика. 2010. URL: <http://discourseanalysis.org/ada11/st77.shtml> (Дата обращения: 25.06.2024).

<sup>16</sup> Ликунь М. Русский экономический текст в функционально-стилистическом и социолингвистическом аспектах: дисс... канд. филол. наук. – Одесса, 2008. – 288 с.

<sup>17</sup> Логунова Е.А. Реализация интерактивности на интернет-сайтах экономических форумов: на материале английского языка: дисс... канд. филол. наук. – Калининград, 2011. – 192 с.

<sup>18</sup> Махницкая Е.Ю. Современный экономический дискурс в когнитивной парадигме. – Ростов н/Д, 2007. – 232 с.

<sup>19</sup> Мурадян А.А. Сопоставительный анализ дискурсивных доминант политической и экономической сфер США, России и Франции: дисс... канд. филол. наук. – М., 2018. – 177 с.

<sup>20</sup> Шереметьева А.А. Метафоры немецкого экономического дискурса: автореф. дис.... канд. филол. наук. – Иркутск, 2009. – 18 с.

<sup>21</sup> Бушев А.Б. Языковые особенности экономического дискурса / Вестник Челябинского государственного университета. – 2013. № 37 (328). Филология. Искусствоведение. Вып. 86. – С. 22-25.

<sup>22</sup> Буланова Н.Н. Лингвистическое исследование экономического дискурса (на материале англоязычной прессы) / <https://scipress.ru/philology/articles/lingvisticheskoe-issledovanie-ekonomicheskogo-diskursa-na-materiale-angloyazychnoj-pressy.html> (Дата обращения: 30.06.2024)

<sup>23</sup> Эргашева, М.В. Оламинг лисоний манзараси ва семантик майдонларга бўлиниши / М. В. Эргашева. – Текст: // Молодой ученый. – 2016. – № 3.1 (107.1). – С. 59-62.

<sup>24</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.31.; Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. – Челябинск, ЧГКИ, 2018, – 315 с.; Прагмалингвистика. – Тошкент: 2008. – 318 б.; Дискурсивные маркеры в узбекском языке // Дискурсология: язык, культура, общество: материалы XIII Международной научной конференции. – Луганск: ЛНУ, 2014. – С.81-91.; Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс.автореф. – Т., 2012.; Ўша муаллиф. Диалогик дискурсада миллий ментал омилларнинг намоён бўлиши // “Амударё” журнали, № 5. 2010. – Б. 125-128.; Раупова Л. Диалогический дискурс как среда, в которой реализуется полипредикативная единица // Theoretical & Applied Science. № 3. 2020. – С. 451-457.

<sup>25</sup> Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. – Челябинск, ЧГКИ, 2018 – 315 с.; Ўша муаллиф. Прагмалингвистика. – Тошкент: 2008. – 318 б.; Ўша муаллиф. Дискурсивные маркеры в узбекском языке // Дискурсология: язык, культура, общество: материалы XIII Международной научной конференции. – Луганск: ЛНУ, 2014. – С.81-91.

<sup>26</sup> Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Т., 2012.; Раупова Л. Диалогик дискурсада миллий ментал омилларнинг намоён бўлиши // “Амударё” журнали, № 5., 2010. – Б. 125-128.; Раупова Л. Диалогический дискурс как среда, в которой реализуется полипредикативная единица // Theoretical & Applied Science. № 3. 2020. – С. 451-457.; Раупова Л. Diyalojik diskursa sosyal mental ve pragmatik etkenler // Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar qurultoyi. – 2017; Раупова Л. Диалогик дискурс босқичлари ва уларнинг шаклланиши // Дунёвийлик ва динийлик ёшлар нигоҳида, 2010. – Б. 68-72.

<sup>27</sup> Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф.– Тошкент, 2020. – 80 б.

o‘rgangan. O‘zbek tilida tibbiy diskurs G.L.Babayeva<sup>28</sup>, ingliz tibbiy terminologik tizimi F.Qosimova<sup>29</sup>, tibbiy diskursning lingvistik xususiyatlari Sh.Bobojonova, B.Olloberganova<sup>30</sup> tomonidan, siyosiy diskurs M.Ergashev<sup>31</sup>, N.Fayziyeva<sup>32</sup>, N.Sayfullayev<sup>33</sup>, O‘.Shukurov<sup>34</sup>lar tomonidan tadqiq etilan. O‘zbek tilshunosligida xususiy diskursning ayrim aspektlari o‘rganilgan<sup>35</sup>. Ammo xususiy diskurs individualligini ta‘minlovchi vositalar lingvistik jihatdan monografik planda tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutining “Tilning zamonaviy talqinlari” mavzusidagi tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek va ingliz tillarida xususiy diskurs individualligini ta‘minlovchi lisoniy vositalarning lingvistik tadqiqidan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

jahon va o‘zbek tilshunosligidagi mavzuga aloqador ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va ularga munosabat bildirish;

tadqiqotning asosiy tadqiqot yo‘nalishlarini tahlil qilish;

diskursiv tahlil qilish yondashuv va usullarini aniqlash;

xususiy diskursni tahlil qilish texnikasi, algoritmini tavsiflash;

o‘zbek va ingliz tillarida tibbiy diskurs individualligini ta‘minlovchi leksik va morfologik vositalar va sintaktik qurilmalarni aniqlash;

o‘zbek va ingliz tillaridagi xususiy diskursning o‘ziga xos qonuniyatlarini tavsiflash;

siyosiy diskursning o‘zbek va ingliz tillari misolidagi til xususiyatlarini aniqlash;

o‘zbek va ingliz tillarida iqtisodiy diskurs individualligini ta‘minlovchi leksik, morfologik vositalarning lisoniy va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish.

**Tadqiqotning obyekti** o‘zbek va ingliz tillaridagi tibbiy, siyosiy va iqtisodiy diskursga oid matnlar (nutq, bosma ommaviy nashrlardagi muloqotlar, shuningdek,

---

<sup>28</sup> Babayeva G.L. Тиббий ходимларнинг тиббий нутқ малакаси тавсифи / International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2022. – Б. 124-129.

<sup>29</sup> Қосимова Ф. Тиббий терминларнинг инглиз тилшунослигидаги илмий асарларда акс этиши // <https://fll.jpdu.uz/index.php/fll/article/download/42/42/187> (Murojaat sanasi: 18.03.2024)

<sup>30</sup> Bobojonova Sh., Olloberganova B. Linguistic features of the medical discourse / Международный научный журнал № 8 (100), часть 2 «Новости образования: исследование в XXI веке» март, 2023 г. – С. 732-735.

<sup>31</sup> Эргашев М. Сиёсий дискурсе ҳақида айрим мулоҳазалар // <https://elibrary.ru/item.asp?id=39198703>; Эргашев М.Р. Сиёсий дискурседа қўлланувчи боғловчи феълларнинг функционал-семантик тадқиқи: Филол. фан. б-ча. фалс...д-ри. дисс.автореф. – Қўқон, 2020. – 54 б.

<sup>32</sup> Файзиёва Н. Сиёсий дискурсе эфемизмларининг коммуникатив-прагматик хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари материаллари асосида): Филол. фан. б-ча. фалс...д-ри. дисс.автореф. – Тошкент, 2023. – 52 б.

<sup>33</sup> Сайфуллаев Н. Ижтимоий-сиёсий терминлар тушунчаси ва талқини // Innovative Development in Educational Activities. Volume 2 | Issue 12 | 2023. – Б. 106-111.; Бекматов Б. Тилдаги ижтимоий-сиёсий лексика фаолиятининг ўзига хослиги // Academic Research in Educational Sciences Volume 2 | Issue 12 | 2021. – Б. 1388-1322.

<sup>34</sup> Shukurov O‘. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi: Filol. fan. b-cha. fals... d-ri. (PhD) diss.avtoref. – Andijon, 2023. – 51 b.

<sup>35</sup> Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти: Филол. фан. д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 80 б.; Latibjonovna G. Тиббий ходимларнинг тиббий нутқ малакаси тавсифи // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences (2022). – Б. 124-129.

so‘zlash, ma’lumot etkazish va qabul qilishning ayrim audio va video shakllari)dan tashkil topadi.

**Tadqiqotning predmeti** xususiy diskurs individualligini ta’minlovchi lisoniy vositalarning o‘ziga xosliklarini aniqlash.

**Tadqiqot usullari** kognitiv-diskursiv va pragmatik-kommunikativ tahlil usullari, shuningdek, qo‘yilgan vazifalarni hal etish va dissertatsiya ishida ko‘rsatilgan maqsadga erishish uchun funksional, kontekstual va komponentli tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xususiy diskurslarning individualligini aniqlashning ma’lumotlarni yig‘ish, matn tahlili, individual xususiyatlarni aniqlash, qiyosiy tahlil, sharh va xulosa bosqichlari aniqlangan;

diskurs individualligini ifodalovchi o‘ziga xos leksika, frazeologik birlik, atamalar, stilistik vositalar va lisoniy vositalardan foydalanishda namoyon bo‘luvchi leksika xususiyatlar; gaplarning tuzilishi, ularning uzunligi, murakkabligi va murakkab qurilmalarning qo‘llanilishida ko‘rinadigan sintaktik xususiyatlar; nutqning individualligi muhokama qilinadigan mavzular, muammolarni ko‘rib chiqishga yondashish xususiyatlari mavzu va mazmun xususiyatlari; so‘zlovchining aytilgan gapga munosabati, uning emotsional holati, fikr ifodasiga bo‘lgan ishonchi va har bir shaxsga xos bo‘lgan boshqa jihatlarni bildiruvchi meta-sharhlar, signallar va belgilardan foydalanishdan iborat metakommunikativ vositalardan foydalanish tizimi ochib berilgan;

institusional diskurslarda diskurs individualligini ko‘rsatuvchi ingliz tilida yaqqolli statistik tahlillar orqali aniqlangan: ingliz tibbiy ilmiy diskursda diskursning xususiyatini ko‘rsatuvchi birliklar 24,4 foizni tashkil etishi, matndagi so‘zlarning 49,2 foizi matn semantikasi uchun ahamiyatga egaligi, o‘zbek tilida esa tibbiy diskursda tibbiy termin va leksemalarga ishora qiluvchi leksik vositalar miqdori 4-40 foizni tashkil etishi, ularning ham katta qismi xalqaro atamalar ekanligi ochib berilgan;

o‘zbek va ingliz tillari siyosiy diskursida umumiste’mol leksikaga oid so‘zlar hamda siyosiy terminlar mazkur diskursning individualligini ifodalashi, matnlarda yuqori chastotaga ega so‘zlar siyosiy diskursning semantik yadrosiga mansub bo‘lmashligi, aksincha, quyi chastotali so‘zlar siyosiy diskursni yorqin ifodalovchi birlik bo‘lishi mumkinligi isbotlangan;

o‘zbek va ingliz tillari rasmiy iqtisodiy diskursga oid matnlar leksik tarkibini tahlil qilish orqali, mazkur matnlarda iqtisodiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik birliklar *birinchidan*, iqtisodiy diskursga oid terminlar sodda (bir so‘zdan iborat), oddiy birikma hamda murakkab birikma tuzilishiga ega bo‘lishi, *ikkinchidan*, rasmiy iqtisodiy diskursga oid terminlar hosil bo‘lishi va kelib chiqishiga ko‘ra sof terminlar hamda umumiste’mol leksikadan ma’nosi maxsuslashish orqali hosil bo‘lgan terminlar guruhiga ajralishi, *uchinchidan*, rasmiy iqtisodiy diskursga oid terminlar semantik tarkibiga ko‘ra, narsa-predmet, shaxs, o‘rin-joy, jarayon hamda belgini atab kelishi umumiy xususiyatlarga egaligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xususiyl diskursga oid matnlarni semantik tahlil qilishda kalit soʻzlar chastotasi va foizi; matndagi umumiy soʻzlar chastotasi; stop-soʻzlar soni; matn hajmi (belgi/soʻzlar miqdori probelga asoslangan va asoslanmagan holda); soʻzlar miqdori (unikal soʻzlar, umumiy soʻzlar, ahamiyatli soʻzlar); matndagi ahamiyatsiz qism (suv), uning foizi; matnning akademik va klassik ehtiyoji; grammatik xatolar miqdorini aniqlovchi onlayn semantik tahlil dasturiy vositasidan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan;

bemorni reabilitatsiya qilishdan keyingi jarayon diskursining oʻz sogʻligʻi holatidan xabardorlik darajasi, ishonch va oʻz-oʻzini anglash, Hissiy ochiqlik, oʻzgarishlarni qabul qilish, muloqot qilish qobiliyati individual xususiyatlari aniqlangani bemor-shifokor muloqoti samaradorligini oshirish imkonini oshirishi dalillangan;

tahlilga tortilgan barcha xususiyl diskurslarda diskursni tavsiflovchi birliklarning statistik xarakteristikasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** oʻrganilgan materiallarning oʻzbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, oʻzbek va ingliz tillarida xususiyl diskurs individualligini aniqlash asoslarini ishlab chiqishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiyl va amaliyl ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiyl ahamiyati shundaki, uning asosiy natijalari va gʻoyalari tibbiyl, siyosiy, savdo-sotiq sohasidagi nutqlardagi til birliklarning kognitiv-diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish uchun nazariyl asos boʻlib xizmat qilishi mumkin. Mazkur sohada dastlabki tadqiqotlarini boshlagan izlanuvchilarga oʻzbek tilidagi xususiyl diskursda til birliklarning asosiy vazifalarini oson aniqlash va tavsiflashga, sohaviyl muloqot mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Dissertatsiyaning ilmiyl natijalari tegishli birliklarning izohlanishida asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliyl ahamiyati shundaki, uning natijalarini diskursologiya, leksikologiya, leksikografiya, kognitiv tilshunoslik va nutqshunoslik boʻyicha kurslarda qoʻllash, shuningdek, ulardan umumiy nutq nazariyasi bilan bogʻliq koʻplab muammolarni ishlab chiqish amaliyotida, nominativ faoliyatning kognitiv jihatlari, shuningdek, darslik, uslubiy koʻrsatmalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Ishning natijalari va xulosalari amaliyl tilshunoslik doirasida nutq madaniyati, notiqlik kabi interaktiv til kurslarini yaratishda ham keng qoʻllanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriyl qilinishi.** Oʻzbek va ingliz tillarida xususiyl diskurs individualligini taʼminlovchi lisoniy vositalar tadqiqi yuzasidan olingan ilmiyl natijalar va amaliyl takliflar asosida:

dissertatsiyaning diskurs individualligini ifodalovchi oʻziga xos leksika, frazeologik birlik, atamalar, stilistik vositalar va lisoniy vositalardan foydalanishda namoyon boʻluvchi leksik xususiyatlar; gaplarning tuzilishi, ularning uzunligi, murakkabligi va murakkab qurilmalarning qoʻllanilishida koʻrinadigan sintaktik xususiyatlar; nutqning individualligi muhokama qilinadigan mavzular, muammolarni koʻrib chiqishga yondashish xususiyatlari mavzu va mazmun xususiyatlari; soʻzlovchining aytilgan gapga munosabati, uning emotsional holati,

fikr ifodasiga bo'lgan ishonchi va har bir shaxsga xos bolgan boshqa jihatlarni bildiruvchi meta-sharhlar, signallar va belgilardan foydalanishdan iborat metakommunikativ vositalardan foydalanish tizimiga doir tavsiyalar ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish merologiyasini ishlab chiqishga doir ilmiy natijalari va materiallaridan Andijon davlat universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan "OT- F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" davlat-fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 1-noyabr 39-04-882-son ma'lumotnomasi). Natijada nutgdagi xususiy diskurslarning semantik ko'lam va nutqiy voqelanish xususiyatlari ochib berilgan;

dissertatsiyasining o'zbek va ingliz tili sud diskursida xususiy diskurslarning individualligini aniqlashning ma'lumotlarni yig'ish, matn tahlili, individual xususiyatlarni aniqlash, qiyosiy tahlil, sharh va xulosa bosqichlari aniqlanganligi, quyi chastotali so'zlar sud diskursini yorqin ifodalovchi birlik bo'lishiga doir ilmiy natijalari va materiallaridan Andijon davlat universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan "PZ-20170926286. O'zbek sud amaliy lingvistikasi tadqiqi" davlat amaliy-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 1-noyabr 39-04-884-son ma'lumotnomasi). Natijada sud diskursi tavsifida qo'llaniluvchi ayrim til birliklarining diskursiv jihatlari ochib berilgan;

dissertatsiyasining rasmiy iqtisodiy diskursga oid matnlar leksik tarkibini tahlil qilish orqali, mazkur mantlarda iqtisodiy diskurs individualligini ta'minlovchi leksik birliklar birinchidan, iqtisodiy diskursga oid terminlar sodda (bir so'zdan iborat), oddiy birikma hamda murakkab birikma tuzilishiga ega bo'lishi, ikkinchidan, rasmiy iqtisodiy diskursga oid terminlar hosil bolishi va kelib chiqishiga ko'ra sof terminlar hamda umumiste'mol leksikadan ma'nosi maxsuslashish orqali hosil bo'lgan terminlar guruhiga ajralishi, uchinchidan, rasmiy iqtisodiy diskursga oid terminlar semantik tarkibiga ko'ra, narsa-predmet, shaxs, o'rin-joy, jarayon hamda belgini atab kelishi umumiy xususiyatlarga egaligi aniqlanganligiga doir materiallari va natijalaridan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172. "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" nomli grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti OO'MTVning 2024-yil 1-noyabr №04/1-3115-son ma'lumotnomasi). Natijada xususiy diskursni belgilovchi ayrim til birliklarining diskursiv jihatlari ochib berilgan;

dissertatsiyasining o'zbek va ingliz tili siyosiy diskursida umumiste'mol leksikaga oid so'zlar hamda siyosiy terminlar mazkur diskursning individualligini ifodalashi, manlarda yuqori chastotaga ega so'zlar siyosiy diskursning semantik yadrosiga mansub bo'lmasligi, aksincha, quyi chastotali so'zlar siyosiy diskursni yorqin ifodalovchi birlik bolishi kabilarga doir ilmiy natijalari va materiallaridan Andijon davlat universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan "№ IL-402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 1-noyabr 39-04-883-son ma'lumotnomasi). Natijada

diskurs tavsifida qo'llaniluvchi ayrim birliklarining o'ziga xosliklari ochib berilgan;

dissertatsiyasining diskurs individualligini ifodalovchi o'ziga xos leksika, frazeologik birlik, atamalar, stilistik vositalar va lisoniy vositalardan foydalanishda namoyon bo'luvchi leksika xususiyatlar; gaplarning tuzilishi, ularning uzunligi, murakkabligi va murakkab qurilmalarning qo'llanilishida ko'rinadigan sintaktik xususiyatlar; nutqning individualligi muhokama qilinadigan mavzular, muammolarni ko'rib chiqishga yondashish xususiyatlari mavzu va mazmun xususiyatlari; so'zlovchining aytilgan gapga munosabati, uning emotsional holati, fikr ifodasiga bo'lgan ishonchi va har bir shaxsga xos bo'lgan boshqa jihatlarni bildiruvchi meta-sharhlar, signallar va belgilardan foydalanishdan iborat metakommunikativ vositalar tizimli tahlil natijalari va materiallaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DUK "Madaniy-ma'rifiy va badiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Fan ufqlari" nomli eshittirishlarning 2024-yil yanvar va fevral oylaridagi sonlarida tadqiqot yuzasidan suhbatlar bo'lib o'tdi. ("O'zbekiston" Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-noyabrdagi 04-36-1164-son ma'lumotnomasi) Natijada xususiy diskurs individualligini ta'minlovchi lisoniy vositalar, nutqning diskursiv jihatlarni ochib beruvchi muhim manba sifatida tatbiq etildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, 1 ta monografiya Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola (ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda) chop qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Hajmi 217 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot ishini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **I bobi "Umumiy va xususiy diskurs xususiyatlari, diskursiv tahlil yondashuvlari"** deb atalgan. Unda diskurs, uning turlari, tipi va tasnifiga yondashuvlar; xususiy diskurs va uning individualligi; jahon va o'zbek tilshunosligida xususiy diskursga yondashuvlar tahlil qilingan.

Mazkur bobning birinchi bo‘limi “*Diskurs, uning turlari, tipi va tasnifiga yondashuvlar*” deb nomlangan. Diskurs – mazmunan bir-birga aloqador, yagona muloqot tizimini ifodalovchi matnlar to‘plami. Diskursning og‘zaki va yozma shakllari mavjud, u turli shakl va strukturaga ega bo‘lishi mumkin. Diskursning asosiy maqsadi axborot uzatish, tinglovchi fikrni ifodalash yoki uni biror bir xabarga ishontirishdan iborat. Turli soha olimlari ijtimoiy-madaniy hayotning ishtirokchisi sifatida o‘zini diskursiv amaliyotga jalb qiladi. Ularning mexanizmini tushunish muloqot qilish hamda atrofimizdagi dunyoni idrok etishda yanada chuqur yondashuvga yordam beradi. Diskursning bir necha turi mavjud bo‘lib, ular o‘z maqsadi, xarakteri va o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Ommaviy diskurs (1); akademik diskurs (2); media diskurs (3); shaxsiy diskurs(4)lar diskursning asosiy turlari bo‘lib, ular kontekst va o‘rganish sohasiga qarab to‘ldirilishi va batafsil bayon qilinishi mumkin. Diskurs – bu dunyo va o‘zimiz haqidagi fikrlarimizga ta’sir qiluvchi murakkab va ko‘p qirrali (bosqichli) hodisadir.

Turli mezonlar va tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, diskursni tasniflashda bir necha yondashuvlari mavjud.

1. *Ijtimoiy vazifasiga ko‘ra:* (1) ommaviy diskurs: ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq va jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan; (2) professional diskurs: ma’lum bir kasb yoki faoliyat sohasida maxsus bilim va ma’lumotlarni yetkazishda foydalaniladi; (3) shaxsiy diskurs: shaxsiy munosabatlar va individual darajadagi muloqot bilan bog‘liq.

2. *Matnning o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra:* (1) notiqlik diskursi: nutq texnikasidan foydalanish va tinglovchilarga hissiy ta’sir ko‘rsatish bilan tavsiflanadi; (2) ilmiy diskurs: mantiqiy dalillar, maxsus terminologiyadan foydalanish va manbalarga havolalar asosida; (3) gazeta diskursi: ommaviy axborot vositalarida yangiliklarni yetkazish va voqealarni tahlil qilishda ishlatiladi.

3. *Kontekst bo‘yicha:* (1) institusional diskurs: muayyan tashkilot, muassasa yoki ijtimoiy struktura bilan bog‘liq; (2) siyosiy diskurs: siyosiy muloqotda jamoatchilik fikrini shakllantirish va saylovlarga ta’sir qilish uchun foydalaniladi; (3) oilaviy diskurs: oila ichidagi muloqot, qadriyat va me’yorlar haqidagi suhbatlar bilan bog‘liq.

4. *Muloqot maqsadiga ko‘ra:* (1) ommaviy diskurs: muhim ijtimoiy masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikri va munozarani shakllantirishga qaratilgan; (2) epistemik diskurs: tadqiqot, tajribaga asoslangan bilim va ma’lumotlarni yetkazish uchun ishlatiladi; (3) ritorik diskurs: tinglovchilarni ishontirishga va ularga ta’sir qilish uchun nutqdan foydalanishga qaratilgan.

Diskurs individualligini ko‘rsatuvchi belgilar: leksika va lingvistik xususiyatlar; sintaktik xususiyatlar; mavzu va mazmun xususiyatlari; metakommunikativ vositalardan foydalanish; kontekstual xususiyatlar. Diskursning individualligini tan olish kommunikativ xulq-atvorni tushunish, shaxsiy xususiyatlar va muloqotning o‘ziga xos belgilarini baholash, shuningdek, matn tahlili va diskursiv amaliyotini bajarish uchun muhim.

Diskursning individualligini uslubiy va lingvistik xususiyatlar; sintaktik oborotlar va gap strukturasi; mavzu va mazmunning o‘ziga xosligi; hissiy

bo‘yoqdorlik va ekspressiv ottenka; metakommunikativ vositalardan foydalanish; kontekstning o‘ziga xosligi kabi belgilar vositasida aniqlanadi.

Ikkinchi bo‘lim “*Xususiy diskurs va uning individualligi xususida*” deb nomlangan. Fanda diskursning individualligini aniqlovchi, o‘rganuvchi qator metodika, texnika, yondashuvlar ma‘lum. Matn va kontekst tahlili, etnografik metodologiya, lingvistik tahlil, diskurs tahlil usuli diskursning sosial-madaniy va mafkuraviy (siyosiy) jihatlarini o‘rganishga imkon beradi. Xususiy diskurslarning individualligini aniqlash bosqichlari sifatida ma‘lumotlarni yig‘ish; matn tahlili; individual xususiyatlarni aniqlash; qiyosiy tahlil; sharh va xulosa kabi bosqichlar xususiy diskursning individualligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi; tilshunoslik, madaniyatshunoslik mutaxassislariga turli jamiyat va shaxslardan iborat guruhlarining lingvistik va madaniy xususiyatlarini yoritishi bilan ahamiyatli.

Umumiy va xususiy diskurs – bu muloqot va bu jarayonning turlarini ko‘rsatuvchi asosiy ikkita diskurs turi. *Umumiy diskurs* (ommaviy diskurs) keng tarqalgan, omma, jamoatchilikka murojaat qilinadigan muloqot shaklidir. Ushbu turdagi diskurs umume’tirof etilgan me’yor, qadriyat va jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi umumiy mafkuraviy asosni ifodalaydi. Umumiy diskurs misollari orasida ommaviy auditoriyaga qaratilgan siyosiy nutqlar, yangiliklar dasturlari, ommaviy muhokamalar va ommaviy muloqotning boshqa shakllari kiradi. *Xususiy diskurs* (individual diskurs) muayyan ijtimoiy guruh(lar), shaxs yoki kontekst bilan chegaralangan muloqot shaklidir. **Mazkur diskurs ma‘lum guruh yoki vaziyatga xos lingvistik va madaniy xususiyatlar bilan tavsiflanadi. U oilaviy suhbatdan siyosiy nutqqacha bo‘lgan muloqot turlarini o‘z ichiga oladi. Diskurs individualligini matn leksikasi orqali, jumladan, unikal so‘zlar, ularning qo‘llanish chastotasi, uslub va lahjalar tahlili asosida aniqlash mumkin.**

Mazkur bobning uchinchi bo‘limi “*Jahon va o‘zbek tilshunosligida xususiy diskursga yondashuvlar*” deb ataladi.

Turli diskurslar va diskursga yondashuvlar N.Arutyunova, V.Demyankov, V.Karasik, A.Kibrik, M.Makarov, P.Serio, Dj.Filips, Dj.Fiske, R.Xodj, Dj.Yul kabi xorijiy; F.Basevich, L.Bezuglaya, L.Bessonova, Y.Bondarenko, M.Golyanich, V.Lukyanes, A.Martnyuk, Y.Morozova, M.Polyujin, Ye.Serajim, L.Solomuk, I.Frolova, I.Shevchenko kabi rus olimlarining ishlarida kuzatiladi. Shuningdek, rus tilida zamonaviy ilmiy diskurs, siyosiy diskurs, hissiy-baholash diskursi, ma‘lum bir ijtimoiy guruh diskursi, ma‘lum bir lisoniy shaxs diskursi kabi xususiy diskursning turli aspektiga bag‘ishlangan ishlar mavjud. Xorijlik olimlardan Fred L. Gardafe, va Venying Su, Kara K. Killing va Skott, Kessler, Brad, Leyns, Vendi va Romona Perez va boshqalar «food» («ovqat») konseptining badiiy adabiyotdagi talqinini o‘rganishgan.

Bizningcha, xususiy diskursning tavsifi Ye.S.Kubryakova talqinida mukammalroq chiqqan. U jumladan, shunday yozgan: “Diskurs tilning real (muloqot vaqtidagi, onlayn) shaklidan foydalanishni ko‘rsatib turadi; u inson ijtimoiy faoliyatining ma‘lum bir turini aks ettiradi, uning batafsil ma‘lumotlaridan foydalangan holda olam lisoniy manzarasini yaratish uchun mavjud. Xususiy diskurs ma‘lum bir soha yoki vaziyatda kontekstni tushunib turgan odamlar

o‘rtasidagi muloqot jarayonining bir qismi bo‘lib, muloqot ishtirokchilari tomonidan, uni amalga oshirish shartlari va maqsadlari bilan farqlanadi”<sup>36</sup>.

D.Z.Shapiyeva ingliz siyosiy diskursida bo‘yoqdorlikni ifodalovchi leksik-stilistik vositalar<sup>37</sup>ni tadqiq qilar ekan, Buyuk Britaniya va Amerika Qo‘shma Shtatlari ommaviy axborot vositalari tilini obyekt sifatida tanlaydi. Uning fikricha siyosiy diskursning o‘ziga xosligini metafora, metonimiya, epitet, qiyos, takror, ritorik so‘roq, yashirin ma’nolarni ifodalash mexanizmi ta’minlaydi<sup>38</sup>. Tadqiqotchi siyosatchi nutqida hissiy-emosional, salbiy va ijobiy bahoni ifodalash xususiyatlarini; semantik va stilistik aloqaning baho ifodasi yoki ifodalilik kategoriyalari; siyosiy diskursda modellashtirilayotgan tilning olamning konseptual manzarasining o‘ziga xos xususiyatlari; tilning semantik tizimi, uning alohida metaforalariga originallik mexanizmi sifatida qarash; siyosiy nutq muloqot strategiyalari – diskriminatsiya, qarama-qarshilik, haqiqiylikning zamonaviy verbal vositalarini tahlil qilishga erishgan va **tanlagan xususiy siyosiy diskursning doimiy hamda fakultativ xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tgan. D.Z. Shapiyeva ta’kidlaganidek, bu diskursda individuallikni belgilovchi asosiy marker — ekspressivlik, hissiy bo‘yoq va, eng muhimi, okkazional metaforadir. Siyosiy nutqda klassik metaforalar bilan birga aynan okkazional metaforalar xususiylilikni ifodalaydi.**

Galiy tili tadqiqotchisi D.Xudaybergenova galiy tili diskursida marker tushunchasiga urg‘u beradi. Uning fikricha, bir diskursni boshqa diskursdan farqlab turuvchi narsa matndagi diskursiv markerlardir. Nutqiy akt, adresant, adresat, illokutiv akt, diskursiv vaziyat ham diskurslarni farqlovchi omil bo‘la oladi<sup>39</sup>.

Manbalarda diskursning universal xususiyatlari ham ajratiladi. Tabiiyki, universal xususiyatlarni belgilamay turib, xususiy diskursning alohida belgilari, individualligini ko‘rsatib bo‘lmaydi. Diskursning universal xususiyatlari sifatida *modallik, intertekstuallik, intersubektivlik, intensionallik, xronotoplik* kabi belgilar keltiriladi<sup>40</sup>.

T.V.Anisimova sodir bo‘layotgan nutq argumentlarining *rasional* va *emosional* ikki shaklini farqlaydi.

*Rasional argumentlar* rasmiy ritorikaning barcha ko‘rinishlarida yuzaga chiqadi, ular o‘z ichiga fakt, statistika va izohlarni qamrab oladi.

*Emosional (psixologik) argumentlar* nutqning ishonchligini ta’minlaydi. Argumentlar *pragmatik, hissiy, etik, intellektual, estetik* toposlarga ajratiladi<sup>41</sup>.

---

<sup>36</sup> Кубрякова Е.С. Язык и знание / Е.С. Кубрякова. – М.: Рос. академия наук. Ин-т языкознания. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с. – с. 525.

<sup>37</sup> Шапиева Д.З. Современные исследования метафоры в политическом дискурсе / Д.З.Шапиева И Сборник материалов научной сессии по итогам выполнения научно-исследовательской работы на факультете МПГУ. – М., 2011/2012. – С. 170-174.


<sup>38</sup> Шапиева Д.З. Лексико-стилистические средства выражения оценки в англоязычном политическом дискурсе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2014. – 19 с.

<sup>39</sup> Худайбергенова Д.И. Средства выражения прагматических отношений в дискурсе на галисийском языке // <https://urok.1sept.ru/articles/688061> (Дата обращения: 30.07.2024)

<sup>40</sup> [http://elearning.mslu.by/assignments/73/topic\\_9/#topic\\_9\\_4](http://elearning.mslu.by/assignments/73/topic_9/#topic_9_4) (Murojaat sanasi: 30.07.2024)

<sup>41</sup> [http://elearning.mslu.by/assignments/73/topic\\_9/#topic\\_9\\_4](http://elearning.mslu.by/assignments/73/topic_9/#topic_9_4)(Murojaat sanasi: 30.07.2024)

Institusional diskursni modellashtirishda xususiyatlarning to'rtta guruhi ajratiladi<sup>42</sup> (Qarang: 1-rasm).



**1-rasm. Institusional diskursni modellashtirish guruhlari**

Xususiy diskurslar orasida turli tillarda gluttonik va gastronomik diskursning individual xususiyatlari batafsil o'rganilgan.

Tadqiqotning II bobi “O‘zbek va ingliz tillarida tibbiy diskurs individualligini ta’minlovchi vositalar” deb nomlangan. Bobning birinchi bo‘limi “*Tibbiy diskurs tavsifi: yondashuv va tasniflar*” deb atalgan.

Tibbiy diskurs – bir-biriga notanish bo‘lgan, zarurat tug‘ilganda ma’lum bir jamoa va ushbu jamoatchilik muassasasi normalariga muvofiq muloqot, maxsus aloqa turi.

O‘zbek tilshunosligida tibbiy lingvistika bo‘yicha bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan: N.G‘aybullayeva tibbiy evfemizm<sup>43</sup>, A.Qobilova tibbiy perifraza<sup>44</sup>, D.Sobirova tibbiy reklamalarning sotsiopragmatik xususiyatlarini<sup>45</sup> monografik planda o‘rgangan. “Tibbiy metaforalarning qisqacha izohli lug‘ati” hamda “O‘zbek tili tibbiy evfemizmlarining qisqacha izohli lug‘ati” yaratilgan<sup>46</sup>. Shuningdek, tibbiyot xodimlari nutqining sosiolingvistik xususiyatlari<sup>47</sup> haqida ayrim fikrlar e’tiborga molik.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek va ingliz tilida tibbiy diskursning individualligini aniqlash uchun matnlarni janri va uslubiga ko‘ra tasniflash, ulardagi umumiylik va xususiylikni aniqlash yaxshi natija beradi.

<sup>42</sup> [http://elearning.mslu.by/assignments/73/topic\\_9/#topic\\_9\\_4](http://elearning.mslu.by/assignments/73/topic_9/#topic_9_4)(Murojaat sanasi: 30.07.2024)

<sup>43</sup> Faybulloeva N.I. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар: Филол.фан.б-ча фалс...д-ри. дисс. – Бухоро, 2019. – 145 б.

<sup>44</sup> Қобилова А. Тиббий перифразаларнинг лингвомаданий хусусиятлари: Филол.фан.б-ча фалс...д-ри. дисс. – Бухоро, 2022. – 155 б.

<sup>45</sup> Собирова Д.Р. Тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол.фан.б-ча фалс...д-ри. дисс. – Бухоро, 2022. – 153 б.

<sup>46</sup> Faybulloeva N.I. Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изохли луғати”. – Тошкент: Академнашр, 2019. –77 б.; Абузалова М.К., Юлдашева Д.Н., Болтаева Н. Тиббий метафораларнинг қисқача изохли луғати. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 63 б.

<sup>47</sup> Курбанова Н. Тиббиёт ходимлари нутқининг социолингвистик хусусиятлари // Central asian academic journal of scientific research. VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2022. – Б. 351-354.

Bobning ikkinchi bo‘limi “*O‘zbek tilida tibbiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik vosita va sintaktik qurilmalar*” deb nomlangan.

**Ilmiy-ommabop tibbiy diskurs.** Ilmiy-ommabop tibbiy diskursni tahlil qilish uchun darslik va ilmiy-ommabop maqolalarni tahlil qilish talab etiladi. Buning uchun obyekt sifatida “Tibbiyot tarixi” darsligi<sup>48</sup> tanlandi. Bu kitobda turli davlatlardagi tibbiyotning asosiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. O‘quv qo‘llanmaning asosiy maqsadi butun dunyo tibbiyotining rivojlanishiga O‘rta Osiyo tibbiyotining qo‘shgan hissasi, bundan tashqari, talabalarda tibbiyotga hissa qo‘shgan olimlarning hayoti va ijodi haqida tasavvur hosil qilishdan iborat. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, xususiy diskursni ifodalovchi leksik vositalar ikkiga bo‘linadi: (1) sohaga oid terminlar va (2) ma’lum bir sohada ham o‘ziga xos ma’no anglatuvchi (ham umumiste’modagi so‘z, ham termin bo‘luvchi) leksemalar. “Tibbiyot tarixi” kitobi<sup>49</sup>ning “O‘zbek xonligi davrida O‘zbekistondagi tibbiyot” mavzusi matnini statistik tahlil qilamiz. Mazkur matnda 1151 ta so‘zshakl ishtirok etgan. Ularning 49 tasi, ya’ni 4,2 foizi tibbiyotga oid leksema va terminlarni tashkil etadi: matnda tibbiyotga oid terminlar soni: 15; leksema/termin: 24; so‘z birikmasi: 10 ta.

**Tibbiy-ilmiy diskurs** tahlili uchun “Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnalida nashr etilgan “Involutsion davrda depressiv buzilishlarning rivojlanishining xavf omillari” nomli maqola<sup>50</sup> obyekt sifatida tanlandi. Mazkur maqola matni 961 so‘zdan iborat bo‘lib, jadvalda ko‘rinib turganidek, matnda ishtirok etgan 961 ta so‘zshaklning 71 tasi, ya’ni 7,4 foizi tibbiyotga oid leksema va terminlarni tashkil etadi. Unda tibbiy-ilmiy diskursga ishora qiluvchi leksik vositalar quyidagi miqdorda ishtirok etgan.

**Tibbiy publisistik diskurs** tahlili uchun “Estetik botulinoterapiyaning yangi imkoniyatlari” konferensiyasi (“Shifokor so‘zi” gazetasi 6-son (1171), 2021-yil 28-iyun) maqolasi<sup>51</sup> obyekt sifatida tanlandi. Quyida mazkur maqolaning leksik tarkibini tibbiy diskurs nuqtai nazaridan tahlil qilamiz. Mazkur maqola umumiy hisobda 210 ta so‘zdan iborat. Jadvalda ko‘rinib turganidek, matnda ishtirok etgan 210 ta so‘zshaklning 21 tasi, ya’ni 10 foizi tibbiyotga oid leksema va terminlarni tashkil etadi.

**Tibbiy professional diskursning** ham o‘ziga xos tomonlari ko‘p. Oldingi bo‘limda aytilganidek, diskursning bu turiga tibbiyot xodimlarining o‘zaro muloqot nutqi, tibbiy kongres va simpoziumlar, tibbiyot xodimlari orasida o‘tadigan konsiliumlar og‘zaki va yozma diskursi mansub. Shuningdek, janriga ko‘ra, kasallik tarixi va kasallik varaqalari matni ham shunga kiradi. Diskursning mazkur turini tahlil qilish maqsadida obyekt sifatida bemor ko‘rigi va kasallik tarixi materiallari tanlandi.

<sup>48</sup> Рустамова Х.Е., Стожарова Н.К., Нурмамадова Қ.Ч., Абдурашидова Ш.А. Тиббиёт тарихи. – Тошкент, 2014. – 207 б.

<sup>49</sup> Рустамова Х.Е., Стожарова Н.К., Нурмамадова Қ.Ч., Абдурашидова Ш.А. Тиббиёт тарихи. – Тошкент, 2014. – 207 б.

<sup>50</sup> Shadmanova L.Sh., Yadgarova N.F., Lyan Y.M., Rajapov M.Sh., Xolmo‘minov A.E., Vosikov B.A. Involutsion davrda depressiv buzilishlarning rivojlanishining xavf omillari / TTA axborotnomasi. 2022-yil 1-son. – B. 52-55.

<sup>51</sup> Garifulina L. “Estetik botulinoterapiyani yangi imkoniyatlari” konferensiyasi // “Shifokor so‘zi” gazetasi 6-son (1171), 2021-yil 28-iyun.

Ko'rik tavsiflangan bunday matnda matnning 70 foizidan yuqori qismi tibbiy termin va kasallikni bildiruvchi so'z va iboralardan tashkil topgan. Bunda: 1) **terminlar**: bioflora, kontrast rentgen tekshiruvi, anemiya, toksikoz, O'RK, keserevo va h. 2) **umumiste'moldagi so'z ma'nosining ixtisoslashuvidan hosil bo'lgan qo'llanish**: qusish, bezovtalik, cho'chish, ichmoq, klinika, homila, homiladorlik, tug'ilmoq, emmoq va h. 3) **so'z birikmasi**: boshini orqaga tashlash, uyqusi notinchligi, dori bermoq, qorni dam bo'lmoq, ahvoli og'irlashmoq, kindigi tushmoq va h.

Mazkur diskurs leksikasini so'zning kelib chiqishiga ko'ra tasniflansa, terminlarning o'z va o'zlashma qatlamga mansubligi, umumiste'moldagi so'zlarning asosan o'z qatlamga mansubligi, so'z birikmalarining sof o'z qatlamga mansub ekanligi ma'lum bo'ldi.

Tibbiy-professional diskursda ham diskursning individualligini ko'rsatuvchi vositalar sirasiga termin, so'z va birikmalar kiradi. Ularning leksik qatlami sof o'z qatlam (birikmalar), o'z va o'zlashgan qatlam (so'z va terminlar)ga mansub bo'lishi mumkin. Shuningdek, diskursning bu turida fe'llar o'ziga xos: matnda ishlatilgan fe'llarning 30 foizi inson salomatligi, uni tiklash, yurish-harakat fe'llari bilan ifodalanadi. Masalan: *qusmoq, ichmoq, qayt qilmoq, tug'ilmoq, emmoq, kasallanmoq, davolanmoq, amaliyot o'tkazmoq, emlanmoq, rivojlanmoq, nafas olmoq, xirillamoq, eshitmoq, tashxis qo'yimoq* va h.

**Tibbiy-muloqot diskursini** tahlil qilish uchun shifokorlarning ijtimoiy tarmoqlarda olib boradigan jonli efiri, savol-javoblari hamda tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga bag'ishlangan video-ma'ruzalar matni obyekt sifatida tanlandi. Quyida Doktor Ischanovning "Qon aylanishini uy sharoitida yaxshilashga/suyultirishga dorilar" sarlavhali videosi<sup>52</sup> matnini tahlilga tortamiz. Doktor Ischanov nutqida ham tibbiy diskursning boshqa turida kuzatilganidek, tibbiy terminlar, so'zlar, so'z birikmasi kuzatildi. **Tibbiy muloqot diskursi tibbiy diskursning boshqa ko'rinishidan farqli ravishda so'zlashuv uslubiga moyil bo'lib, unda strukturali tibbiy terminlar asosiy o'rin egallaydi.**

Yuqoridagi ko'rsatilgan tadqiq obyektlari haqidagi ma'lumotni quyidagicha umumlashtirish mumkin (Qarang: 1-jadval).

1-jadvaldagi tahlillardan ko'rinadiki, tibbiy diskursda tibbiy termin va leksemalarga ishora qiluvchi leksik vositalar miqdori uncha katta emas: 4-40 foizni tashkil etadi.

Bobning uchinchi bo'limi "*Ingliz tilida tibbiy diskurs individualligini ta'minlovchi leksik vosita va sintaktik qurilmalar*" deb atalgan.

Ingliz tibbiy diskursi institutsional diskursga mansub. Institutsional diskurs siyosiy, diplomatik, ma'muriy, huquqiy, harbiy, pedagogik, diniy, mistik, tibbiy, biznes, reklama, farmasevtika, kosmetologiya, gastronomik, gazeta va boshqa diskurslar kiradi. Ingliz tibbiy diskursi – bu tibbiyot sohasidagi tibbiy, ilmiy-tibbiy, tibbiyot reklamasi matnlarini qamrab oladi. F.L.Kosiskaya, M.V.Matyuxinalarning fikriga ko'ra, ingliz tibbiy diskursining murakkab tabiati uning janriy farqlanishiga

---

<sup>52</sup> <https://www.youtube.com/watch?v=KXgRYae9MDo>(Murojaat sanasi: 5.08.2024)

sabab bo‘ladi<sup>53</sup>. Ular orasida shifokor nutqi diskursi yetakchi o‘rinda turadi. Tibbiy diskurs tarixiy, ensiklopedik, ijtimoiy va farmasevtik diskursning polifonik birlashishi bilan tavsiflanadi.

## 1-jadval

**Tibbiy diskurs statistik tahlilining solishtirma jadvali**

Tibbiy diskurs turi	Obyekt	Matndagi umumiy so‘z soni	Tibbiy diskursga ishora qiluvchi birlik ulushi (sonda)	Tibbiy diskursga ishora qiluvchi birlik ulushi (foizda)
Tibbiy ilmiy	1	961	71	7,4
Tibbiy ilmiy-ommabop	1	1151	49	4,2
Tibbiy pulisistik	1	210	21	10
Tibbiy pulisistik	1	121	47	38
Tibbiy professional	1	642	89	14
Tibbiy muloqot	1	1230	186	15

Ingliz tili tibbiy diskursida fe‘l-iboralarning qo‘llanish chastotasi yuqori. Masalan: *to clear up – if an illness or infection clears up, it disappears; to shoot up – to make injection; to come along – to recover; to put on – to prescribe; to pull through – to recover; to heal over – to become covered by new skin; to drop of – to fall asleep; to break out – to start suddenly*. Ingliz tili tibbiy diskursida yangi tibbiy terminlarning shakllanishida metaforaning o‘rni katta. Masalan, *silent stroke – ischemic insult*.

Ingliz tili tibbiy diskursi o‘zbek tiliga nisbatan janriy jihatdan rang-barang. Savdo tibbiy diskursi; akademik tibbiy diskurs; tibbiy-ilmiy diskurs; tibbiy-reklama diskursi; tibbiy yuridik (qonunchilik) diskursi; tibbiy mediadiskurs; shifokor tibbiy diskursi<sup>54</sup>.

**Ingliz tili tibbiy diskursi semantik-statistik tahlili.** Ingliz tilidagi tibbiy diskursga oid matnlarni semantik tahlil qilishda onlayn semantik tahlil dasturiy vositasi<sup>55</sup> dan foydalanildi.

“New classification of tuberculosis aims to improve focus on the early stages of disease”<sup>56</sup> maqolasi tibbiy publitsistik diskursga mansub. Matnning statistikasi quyidagicha (Qarang: 2-jadval).

## 2-jadval

**Tibbiy publitsistik maqola birliklari statistik tahlili (2.6.-ilova)**

Ko‘rsatkich nomi	Natija
Belgilar miqdori	5083
Umumiy so‘zlar miqdori	799
Unikal so‘zlar miqdori	309
Ahamiyatli so‘zlar miqdori	281
Ahamiyatsiz so‘zlar (stop-words) miqdori	306
Suv	64.8 %

<sup>53</sup> Косицкая Ф.Л., Матюхина М.В. Английский медицинский дискурс в сфере профессиональной коммуникации / Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2017. 6 (183). – С. 44-48.

<sup>54</sup> Косицкая Ф.Л., Матюхина М.В. Английский медицинский дискурс в сфере профессиональной коммуникации / Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2017. 6 (183). – С. 44-48.

<sup>55</sup> <https://advego.com/text/seo/> (Murojaat sanasi: 12.07.2024)

<sup>56</sup> <https://www.news-medical.net/news/20240322/New-classification-of-tuberculosis-aims-to-improve-focus-on-the-early-stages-of-disease.aspx> (Murojaat sanasi: 15.07.2024)

Yuqorida keltirilgan birinchi matnning semantik yadrosi avtomatik aniqlangach, biz ular orasida tibbiy diskursni ifodalovchi birliklar ajratib olindi<sup>57</sup>. (Qarang: 3-jadval).

### 3-jadval

#### Tibbiy publisistik maqola birliklarining semantik yadrosi chastotasi (2.6.-ilova)

birikma/soʻz	miqdor	Chastota, %
Disease	17	2.13
Infectious	7	0.88
Research	7	0.88
Researcher	7	0.88
Tuberculosis	6	0.75
Framework	5	0.63
Health	5	0.63
Infection	5	0.63
International	5	0.63
Symptom	5	0.63
Treatment	5	0.63
Active	4	0.50
Consensus	4	0.50
Council	4	0.50
disease states	4	0.50 / 1.00
Medical	4	0.50
medical research	4	0.50 / 1.00
Transmission	4	0.50
co-lead author	3	0.38 / 0.75
earlier disease states	3	0.38 / 1.13
early stages	3	0.38 / 0.75
Identify	3	0.38
international team	3	0.38 / 0.75
Latent	3	0.38
Medicine	3	0.38
National	3	0.38
Subclinical	3	0.38

Jadvalda koʻrinib turganidek, mazkur matnda *disease*, *infectious*, *tuberculosis*, *health*, *infection*, *symptom*, *treatment* kabi birliklar tibbiy diskursga oid eng yuqori chastotali soʻzlar ekanligi aniqlandi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ingliz tilida tibbiy publisistik diskursda uning individualligini koʻrsatuvchi vositalar 5-10 foizni tashkil etadi.

**Ingliz tili tibbiy ilmiy diskursini** tahlil qilish uchun obyekt sifatida katta hajmli “Diagnostic accuracy of magnetically guided capsule endoscopy with a detachable string for detecting oesophagogastric varices in adults with cirrhosis:

<sup>57</sup> <https://advego.com/text/seo/>(Murojaat sanasi: 12.07.2024)

prospective multicentre study” sarlavhali maqola tanlandi. Avtomatik tahlil natijasida ko‘rinadiki, ingliz tilidagi ilmiy tibbiy diskursda matndagi so‘zlarning 49,2 foizini matn semantikasi uchun ahamiyatga ega so‘zlar tashkil etadi. Bu tibbiy publisistik diskursdan 6-10 foizga yuqori sanaladi. O‘zbek tilida tibbiy diskursning tibbiy-ilmiy diskurs (1); tibbiy-professional diskurs (2); tibbiy-muloqot diskursi (3) hamda tibbiy-publisistik diskurs (4) kabi turi farqlanadi. Tibbiy diskursning mazkur turlarining umumiste‘mol va chegaralangan leksikasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Demak, ingliz tibbiy ilmiy matnda diskursning xususiyligini ko‘rsatuvchi birliklar qayta qo‘llanish bilan birga (umumiy so‘zlarga nisbatan hisoblaganda) 24,4 foizni tashkil etadi. Ko‘rinadiki, ingliz tilidagi ilmiy tibbiy diskursda matndagi so‘zlarning 49,2 foizini matn semantikasi uchun ahamiyatga ega so‘zlar tashkil etadi. Bu tibbiy publisistik diskursdan 6-10 foizga yuqori sanaladi. O‘zbek tilida esa tibbiy diskursda tibbiy termin va leksemalarga ishora qiluvchi leksik vositalar miqdori uncha katta emas: 4-40 foizni tashkil etadi. Ularning ham katta qismi xalqaro atamalardir.

Tadqiqotning III bobi **“O‘zbek va ingliz tillarida siyosiy diskurs individualligini ta‘minlovchi lisoniy vositalar”** deb nomlangan. Bobning birinchi bo‘limi *“Siyosiy diskurs va uning o‘ziga xos xususiyatlari”* deb ataladi. T. Van Deyk siyosiy diskursni tor ma‘noda shunday ta‘riflaydi: *“Siyosiy diskurs – ma‘lum bir ijtimoiy soha, siyosat bilan chegaralangan janrlarning ma‘lum bir sinfidir”*<sup>58</sup>. Tilshunos E.I.Sheygal va T.Van Deyk siyosiy diskursni faqat siyosatchilar tomonidan amalga oshiriladigan nutqiy muloqotning ma‘lum bir bo‘lagi sifatida qarashsa, R.Vodak siyosiy diskursni nafaqat mustaqil tadqiqot sohasi, balki *“usul”* sifatida ishlab chiqarish va idrok nazariyalari majmui sifatida tushunadi<sup>59</sup>. Bundan kelib chiqqan holda, siyosiy diskurs ishtirokchilari sirasiga nafaqat siyosatchilar, balki siyosiy muloqot jarayonida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, masalan, jamoatchilik, xalq, fuqarolar, namoyishchilar hamda saylovchilarni ham kiritish mumkin. Siyosiy diskurs ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning tarkibiy qismi bo‘lib, u murakkab lingvistik birlik, bilim, harakatni shakllantiradi va belgilaydi. Siyosiy diskurs nafaqat lingvistik verbal va noverbal vositalar orqali, balki muloqotning aksiologik formati bilan belgilanadigan noverbal omillar vositasida yuzaga chiqadi, shuningdek, diskursning xususiyligini belgilaydigan kognitiv strukturalar mavjud<sup>60</sup>.

Siyosiy diskurs turli muloqot jarayonida: shartnoma, nutqlar, saylov kampaniyalari, tahririyat, gazeta sharhlari, intervyularda ifodalanadi. Siyosatchilar, odatda, oddiy, kundalik muloqot yoki so‘zlashuv uslubi bilan aralash nutqdan foydalanishadi. Siyosiy diskursda maqol va idiomalarni qo‘llash holatlari ham ko‘p kuzatiladi. Bu xususiyatlar siyosiy diskurs tilini norasmiy, ko‘pchilik auditoriya uchun tushunarli qiladi, shuning uchun siyosatchilar ko‘pincha ritorik uslub,

---

<sup>58</sup> Teun A. van Dijk Racism at the Top. Parliamentary Discourses on Ethnic Issues in Six European Countries. With Ruth Wodak. Klagenfurt: Drava Verlag, 2000 – P.86.

<sup>59</sup> Fairclough, N., Wodak, R. (1997). Critical Discourse Analysis. In T. van Dijk (Ed.), Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction (Vol. 2, pp. 258-284). – P. 180-196.

<sup>60</sup> Понятие и основные характеристики политического дискурса // <https://vc.ru/u/723351-nastya-an/207441-ponyatie-i-osnovnyie-harakteristiki-politicheskogo-diskursa>(Дата обращения: 20.05.2024).

so‘zlashuv tili va maxsus terminologiya bilan shakllanadigan gap qurilishi tipidagi siyosiy nutqdan foydalanishadi<sup>61</sup>.

Zamonaviy tilshunoslikda siyosiy diskursni o‘rganishning bir necha yondashuvlari bo‘lib, ular orasida tanqidiy, deksreptiv, tavsifiy va kognitiv tahlillar asosiy o‘rinni egallaydi.

Siyosiy diskursning lisoniy xususiyatlari siyosatchilar bilan muloqot olib borishni yengillashtiradi, suhbatdosh yoki tinglovchiga ta’sir qilish, o‘zining haq ekanligiga ishonitirishga yordam beradi. Shuning uchun siyosiy diskursning lisoniy xususiyatlarini bilish istalgan siyosatchining eng zaruriy ko‘nikma va imkoniyati sanaladi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik va morfologik vositalar” deb nomlangan.

*Siyosiy diskursning leksik xususiyatlari*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi majlisidagi nutqi”<sup>62</sup> sarlavhali matn tahlilida quyidagi natija hosil bo‘ldi:

#### 4-jadval

#### “Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi majlisidagi nutqi” leksik-semantik qatlam tahlili

Umumiy so‘zlar soni	850
Unikal so‘zlar miqdori	582
Ahamiyatli so‘zlar soni	798
Nomuhim so‘zlar miqdori	39

Yuqoridagi matn tahlilidan ko‘rinib turibdiki, mazkur matnda *Yevroosiyo, iqtisodiy, Rossiya, O‘zbekiston, qo‘shma, mamlakat, sanoat, qabul qilish, hamkorlik, ittifoq, prezident, rivojlantirish, transport, elektron, qo‘llab-quvvatlash, hamkorlik* kabi leksik birliklar semantik yadroni tashkil etadi.

#### 5-jadval

#### Inauguratsiya marosimi nutqidagi murojaat shakllari, sifatlovchilari va qo‘llanish chastotasi

№	Nutq qaratilgan subyekt	chastotasi	Aniqllovchisi
1	Vatandoshlar	1	Muhtaram
2	Yurtdoshlar	3	aziz (1), qadrlı (1), aziz va qadrlı (1)
3	Do‘stlar	3	qadrlı (1), hurmatlı (1), aziz (1)
4	Ishtirokchilari	3	muhtaram (1 - sa) tantanali majlis (1- qa), hurmatlı (2 -sa), tantanali marosim (2-qa)
5	Qatnashchilari	1	hurmatlı (1 - sa), tantanali marosim (1- qa)
6	Senat a‘zolari!	1	hurmatlı (1 - sa)
7	Qonunchilik palatasi deputatlari!	1	hurmatlı (1 - sa)
8	Xorijiy diplomatik korpus vakillari!	1	
9	Xonimlar va janoblar!	1	
10	Senator va deputatlar!	1	Qadrlı (1 - SA)

<sup>61</sup> Кибрик А.А., Плунгян В.А. Функционализм // Современная американская лингвистика: фундаментальные направления. Изд. 2-е, испр. и доп. – М.: УРСС, 2002. – С. 276-339.

<sup>62</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/7221>(Murojaat sanasi: 12.07.2024)

Ko‘rinib turibdiki, *vatandoshlar, yurtdoshlar, do‘stlar, ishtirokchilar, qatnashchilar* kabi murojaat shakllari faol qo‘llangan. E‘tiborli tomoni shundaki, mazkur murojaat shakllari o‘zaro sinonim: *vatandosh // yurtdosh, ishtirokchi // qatnashchi* kabi. Shuningdek, murojaat shakllari, albatta, sifatlovchi va qaratqich aniqlovchi bilan kengaygan holda qo‘llangan: *muhtaram, qadrli, hurmatli, aziz* kabi. Yuqorida sanalgan, shuningdek, *xonimlar va janoblar* kabi undalmalar marosimning umumiy qatnashchilariga qaratilgan bo‘lsa, *Senat a‘zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Xorijiy diplomatik korpus vakillari, senator va deputatlar* kabi undalmalar siyosiy marosimda ishtirok etayotgan mas‘ul shaxslarga qaratilgan. Bu esa ularning shaxsi va vazifasi, ularga bo‘lgan e‘tiborini ta‘kidlash, nutqning mazkur subyektlar uchun muhimligini ko‘rsatishga ishoradir.

Demak, siyosiy nuqtlarda nutq qaratilgan shaxs – undalma maxsus ekspressiv vazifa bajaradi.

Inauguratsiya marosimida, odatda, so‘zlovchi kelajakda bajarishni rejalashtirgan ishlarini sanab berarkan, I shaxs, ko‘plik son hamda aniq nisbatdagi kesimlarni qo‘llaydi. Masalan:

*Xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar yo‘lini yanada qat‘iy davom ettiramiz va bu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmaymiz!*<sup>63</sup>

*Yangi O‘zbekistonni birgalikda albatta barpo etamiz!*<sup>64</sup>

*«xom ashyodan – tayyor mahsulotgacha» degan tamoyil asosida drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantiramiz.*<sup>65</sup>

Bunday kesimlardan shakllangan konstruksiyalar (*tashakkur aytaman, minnatdorlik bildiraman, ishonaman, izhor qilaman, tashakkur aytaman*) so‘zlovchining o‘ziga ishonch, tinglovchidan minnatdorlik hissi va ularga bo‘lgan hurmatni ifodalashga xizmat qiladi.

Nutqda dastur maqsadini anglatuvchi boshqa fikrlar majhul nisbatdagi kesim bilan ifodalanadi: *aylanadi, amalga oshirildi, tartibiga qo‘yildi, yangi pog‘onaga ko‘tariladi, o‘tkaziladi, shakllantiriladi, optimallashtiriladi, kengaytiriladi, yo‘lga qo‘yiladi, belgilanadi, baho beriladi, ahamiyat beriladi, amalga oshiriladi.*

Bunday kesim bilan shakllangan gaplarda “jamoalar bilan birgalikda bajarishga da‘vat” ma‘nosi yashiringan bo‘ladi.

Bu nutqda, shuningdek, “harakat nomi + lozim/ zarur/ kerak” konstruksiyasidagi egasi umumlashgan yoki egasi noma‘lum gaplar ham uchraydi: *his etishlari zarur, jadallashtirish kerak, unutmashligimiz kerak* (Qarang: 3.12.-ilovadagi matn).

Shuningdek, inauguratsiya marosimidagi nutqlarda istak mazmunidagi konstruksiyalar alohida o‘ringa ega. Siyosiy diskursning kuzatilgan mazkur janrga oid matnlarida tilak, istak mazmunidagi gaplar, albatta, uchraydi. Masalan: *Yangi O‘zbekiston timsollaridan biri bo‘lgan Senat binosi hammamizga muborak bo‘lsin! Aziz va mo‘tabar Vatanimiz hamisha omon bo‘lsin! Xalqimizning baxtu iqbolini, omadini bersin!*

<sup>63</sup> <https://uztv.tv/channels/uzbekistan-24> (Murojaat sanasi: 14.06.2024)

<sup>64</sup> <https://uztv.tv/channels/uzbekistan-24> (Murojaat sanasi: 14.06.2024)

<sup>65</sup> <https://uztv.tv/channels/uzbekistan-24> (Murojaat sanasi: 14.06.2024)

Bunday konstruksiyali gaplarning o'rnini aniq: ular nutqning kirish qismi va eng oxiridan joy oladi.

Demak, o'zbek tili siyosiy diskursida makur diskurs individualligini tashkil etuvchi leksemalar ishtiroki chastotaga nisbatan o'rtacha 8-11 foizni tashkil etadi. Tabiiyki, bu raqamlar matn mavzusiga qarab farqlanadi.

Mazkur bobning uchinchi bo'limi "*Ingliz tilida siyosiy diskurs individualligini ta'minlovchi lisoniy vositalar*" deb nomlanadi.

Ingliz tilidagi siyosiy diskurs tahlili uchun inglizabon siyosatchilarning nutqlari tanlab olindi. Mazkur matnlar dastlab avtomatik semantik tahlil dasturi<sup>66</sup> vositasida statistik-semantik tahlil qilindi; har bir matnning semantik yadrosi qo'shimcha ravishda qo'lda semantik tahlil qilindi.

B.Obamaning 2009-yil 20-yanvardagi inauguratsiya marosimidagi nutqi<sup>67</sup> matni statistik tahlili natijasi 6-jadvalda keltirilgan.

## 6-jadval

### B.Obama inauguratsiya marosimidagi nutqi matni statistikasi

Ko'rsatkich nomi	Mazmuni
So'zlar miqdori	2405
Unikal so'zlar miqdori	803
Ahamiyatsiz so'zlar miqdori	732

B.Obama nutqida 803 ta unikal so'z ishtirok etgan, ammo mazkur matn – siyosiy diskursning semantik yadrosi avtomatik va qo'lda bajarilgan tahlilidan ko'rinib turibdiki, 45 ta so'z siyosiy diskursni ifodalovchi so'z ishtirok etgan. Mazkur so'zlar tahlilida so'zlarning chastotasi hamda mazmuni e'tiborga olindi. *Nation, America, generation, american, child, our nation, spirit, woman* kabi so'zlarga Prezident nutqida asosiy e'tibor qaratilgan. Mazkur so'zlar matnda yuqori chastotaga ega bo'lgani uchun e'tibor shu so'zlarga qaratilgan degan xulosaga kelish mumkin. Ammo matnda ikki, uch va to'rt marta ishtirok etgan so'zlar ham siyosiy diskursning individualligini ifoda etganini ko'rish mumkin: *our common, peace, power, word, economy, liberty, ambition, brave, business, cooperation, country* kabi siyosiy mazmuni ifodalab keladi.

3.3.2.-jadvaldagi tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, "B.Obamaning inauguratsiya marosidagi nutqi" matni syemantik yadrosi, ya'ni mazkur diskursning individualligini hosil qiluvchi birliklar matndagi umumiy unikal so'zlarga nisbatan 21 foizni, semantik yadroning takrorlanishini inobatga olganda, 27,5 foizni tashkil etadi.

*Ingliz tilida siyosiy diskurs individualligini ta'minlovchi lisoniy vositalarning konseptual tahlili.* Siyosiy diskursning eng muhim lingvistik xususiyatlari sifatida, birinchi navbatda, sintaktik konstruksiyalarning to'g'ri tanlanishini ta'kidlash lozim: faol/passiv ovozni ehtiyotkorlik bilan tanlash va ishlatish talab etiladi. Siyosatchilarning xalqqa murojaatida faol va kuchli ovoz toni murojaatning bir qismi sifatida va'dalarni bajarishga, umuman harakat qilishga tayyorligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Fe'ning passiv shaklda qo'llanilishi tinglovchilarning

<sup>66</sup> [https://advego.com/text/seo/\(Murojaat sanasi: 12.07.2024\)](https://advego.com/text/seo/(Murojaat sanasi: 12.07.2024))

<sup>67</sup> [http://obamaspeeches.com/\(Murojaat sanasi: 12.07.2024\)](http://obamaspeeches.com/(Murojaat sanasi: 12.07.2024))

diqqatini xarakterga qaratishga imkon beradi va shu bilan har qanday harakatlar uchun undan ma'lum darajada javobgarlikni olib tashlaydi. Hatto fe'lining nisbat shakli ham grammatik ma'nodan tashqari stilistik va ekspressiv vazifa bajaradi<sup>68</sup>.

So'z yasalishi darajasida siyosiy diskursning bir qator lingvistik xususiyatlarini ham aniqlash mumkin. Ingliz tilidagi siyosiy diskurs ikki o'zakdan iborat ko'p sonli murakkab so'zlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Masalan: a far-reaching network, faint-hearted, risk-takers, health care's quality, political arguments, hard-earned peace, firefighter's courage.

Siyosiy konsept turli millatlar siyosiy olam lisoniy manzarasini tasvirlashga yordam beradi. Siyosiy diskurs tadqiqotchilari universal konstanta konseptlar sirasiga "Vatan", "ona", "iymon", "sevgi", "do'stlik", "oila", "ozodlik"; fundamental konseptlar sirasiga "makon", "zamon", "sabab" kabilarni kiritishadi.

Demak, siyosiy diskursning individualligini nafaqat siyosatga oid so'z va terminlar, balki konsept va boshqa lisoniy vositalar ham ifodalaydi.

Tadqiqotning **IV bobi "O'zbek va ingliz tillarida iqtisodiy diskursning lingvistik modeli"** deb nomlangan.

Birinchi bo'limda *iqtisodiy diskursning umumiy va xususiy xususiyatlari* tahlilga tortilgan.

Ingliz tilida iqtisodiy diskurs tahlili uchun material bo'ladigan OAV materiali sifatida quyidagi jurnal va gazetalarni sanash mumkin: "The Economist", "The Daily Telegraph", "The Independent", "The Observer", "The New York Times", "The USA Today", "The Guardian", "The Wall Street Journal", "Forbes" va b. Tabloidlar sifatida "The Mirror", "The Daily Express", "The Sun", "The Star" va b.ni tanlab olish maqsadga muvofiq. Ayrim universal gazeta va jurnallarning "Business", "Finance and economics", "Money", "Property", "Jobs", "News", "Companies", "Economy", "Financial", "Industry", "Small Business" kabi ba'zi rukn va bo'limlari ham material vazifasini o'tay oladi.

Publisistik matnlarda iqtisodiy diskursning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi yuqorida sanab o'tilgan omillar uni rasmiy-idoraviy yoki ishbilarmonlik diskursining giponimi mavqeida baholash hamda uni quyidagicha ta'riflashga asos bo'ladi: ommaviy axborot vositalaridagi yangilik va xabarlar orqali ifodalanuvchi publisistik-iqtisodiy diskurs ma'lum bir iqtisodiy muammo bilan bog'liq kommunikativ va funksional-pragmatik munosabatlar, omaviy adresatga ta'sir etish hamda omma fikrini shakllantirish maqsadida dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyatli masala va voqealarni ifodalovchi, ularga refleksiya bildiruvchi diskursdir. O'zbek va ingliz tillaridagi iqtisodiy xabarlar tahlili asosida iqtisodiy diskursning quyidagi asosiy (ikki tilda bir xil qo'llanuvchi) konseptlarni ajratish mumkin. Buni quyidagi 7-jadvalda ifodalaymiz:

## 7-jadval

### O'zbek va ingliz tillarida iqtisodiy diskursning universal konseptlar

O'zbek tilidagi iqtisodiy diskurs konseptlari	Ingliz tilidagi iqtisodiy diskurs konseptlari
Pul, mahsulot, bitim, xaridor, sotuvchi,	Money, product, deal, buyer, seller,

<sup>68</sup> Бейня М.В. Лингвистические особенности политического дискурса. [https://www.tsutmb.ru/nauka/internet-konferencii/2018/yazik\\_kultura/2/bejny.pdf](https://www.tsutmb.ru/nauka/internet-konferencii/2018/yazik_kultura/2/bejny.pdf). (Дата обращения: 12.07.2024)

iqtisodiy munosabatlar, foyda, boylik, savdolashish, bankrotlik, bozor, mulk	yeconomic ryelations, benefit, wyealth, bargaining, bankruptcy, markyet, property
--	---

Demak, iqtisodiy diskurs deganda iqtisod sohasidagi nutqiy aktlar, iqtisodiy dunyo haqiqatlarini aks ettiruvchi kasb-hunarga oid soʻzlar, nomutaxassis, jurnalist tomonidan yaratilgan ogʻzaki va yozma matnlar yoki ularning parchalari yigʻindisini tushuniladi.

Iqtisodiy diskurs sintaktik strukturasiidagi oʻziga xosliklarni quyidagicha tavsiflash mumkin. Elliptik gaplar notoʻliq qurilmalarning alohida turi boʻlib, ularning toʻliqsizligi faqat tuzilish darajasida ifodalanadi, asosan, predikativ feʼlning yoʻqligi bilan izohlanadi. Fragmentatsiya, jumladan, parsellyasiya – yagona gapning turli qismlarga boʻlinib ifodalanishi koʻp kuzatiladi. Kirish birikmalari modal maʼnolarni koʻrsatish, soʻzlovchining oʻz fikriga munosabatini ifodalashga qaratilgan boʻladi. Ajratilgan boʻlaklar asosiy fikrga qoʻshimcha, izohlovchi maʼlumotlarni kiritishga xizmat qiladi. Bogʻlovchi qurilmalar asosiy axborotga qoʻshimcha (izohlovchi maʼlumot) xabar qoʻshishda muayyan rasmiy vositalarga amal qilinadi. Oʻzga gapli konstruksiyalar soʻzlovchi (muallif)ning xabariga boshqa shaxs yoki axborot manbaining nutqini kiritish bilan ifodalanadi. Muloqotning dialogik xususiyati intervyu janrida amalga oshiriladi<sup>69</sup>.

Iqtisodiy diskurs deganda, umumiy ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, tarixiy va siyosatshunoslik paradigmalariga asoslangan mantiqiy mulohaza, dalillar tizimi tushunilishi kerak. Ilmiy munozara jarayonida psevdoilmiy, gʻayritarixiy, dogmatik mulohazalarni uzib qoʻyish va iqtisod fanining predmet sohasida qolib, fanning umumiy nazariy darajasining pasayishiga yoʻl qoʻymaslik, uning pragmatik ahamiyatini oshirish imkonini beradi. Toʻgʻri tashkil etilgan iqtisodiy diskurs bugungi kunda dunyo iqtisod fanida mavjud boʻlgan mazmuniy va uslubiy noaniqlikni kamaytiradi, shuningdek, soʻnggi vaqtlarda tobora ustunlashgan intuitiv tavsiflash usulidan uzoqlashadi.

Mazkur bobning ikkinchi boʻlimi *“Oʻzbek va ingliz tillarida publisistik-iqtisodiy diskurs individualligini ifodalovchi leksik va grammatik vositalar”* deb nomlangan.

Publisistik iqtisodiy diskurs pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa shart-sharoitlar bilan birgalikda tasvirlangan hujjat sifatida yuzaga chiqadigan ommaviy axborot vositalarining nutqini nazarda tutadi. Mazkur diskurs ommaviy muloqot vositasida shakllantiriladi, ijtimoiy-madaniy taʼsir vositasida paydo boʻladigan hamda muloqot aʼzolarini tushunish tizimini aks ettiruvchi nutq hosil qilishning kognitiv jarayonini ifodalaydi<sup>70</sup>. Materiallar tahlili shuni koʻrsatdiki, publisistik iqtisodiy matnlar turli xil iqtisodiy qiyinchiliklar, jahon iqtisodiyotining dolzarb muammolari, jahon iqtisodiyoti globallashuvi yoʻnalishlari, yirik iqtisodiyotlarning shakllanishidagi progressiv tendensiyalar, ijtimoiy, moliyaviy va globallashuv mezonlarida davlatlarning siyosiy shakllanishi, xalqaro moliyaviy munosabatlar tizimida turli davlatlarning ishtirok etishidagi qiyinchiliklar haqida maʼlumot berishi bilan axborot berish, koʻngilochar, taʼlimiy, marketingga oid, mafkuraviy taʼsir etish vazifalarini bajaradi.

<sup>69</sup> <https://elibrary.ru/item.asp?id=21996464>(Murojaat sanasi: 12.07.2024)

<sup>70</sup> Евтушина Т.А., Ковальская Н.А. Экономический дискурс как объект лингвистического исследования // <https://elibrary.ru/item.asp?id=21996464>(Дата обращения: 12.07.2024)

*O‘zbek tili publisistik iqtisodiy diskursi leksik vositalari potentsiali.* O‘zbek tilidagi publisistik-iqtisodiy diskurs tahlili uchun obyekt sifatida **kun.uz** saytining “Iqtisodiyot” ruknidagi ommabop maqolalar obyekt sifatida olindi.

“Moskva birjasi sanksiyaga tushdi. Bu rubl kursiga qanday ta’sir qiladi?”<sup>71</sup> sarlavhali maqola iqtisodiy-siyosiy mavzuga oid bo‘lib, asosiy muammo birjaga qaratilgani sababli tahlil uchun tanlab olindi. Mazkur maqoladagi iqtisodga oid terminlar miqdori butun matnga nisbatan salmoqli miqdorni tashkil etadi.

Sodda terminlar orasida o‘z qatlamga mansub terminlar: *mahsulot, tannarx, narx, tushum, savdo, vositachilik, eksportchi* hamda o‘zlashma terminlar: *sanksiya, birja, dollar, yevro, konvertatsiya, investor* kabi birliklar uchraydi.

Sodda so‘z birikmasi ko‘rinishidagi terminlar qaratqich+qaralmish qolipida (*valyuta bozori, dollar savdosi, moliya instituti, kursning barqarorlashuvi*) bo‘lsa-da, ayrimida tegishlilik ma’nosi yuzaga chiqadi. Masalan, *kursning barqarorlashuvi, valyuta taqchilligi*. Bunday qolipli terminlarning ko‘pchiligi umumdan ajralgalganlik, xoslik ma’nosini ifodalaydi: *valyuta bozori, dollar savdosi, moliya instituti, pul o‘tkazmalari*.

Birikma-terminlar orasida bitishuvli birikmalar ham katta miqdorda uchraydi: *onlayn banklar, o‘rtacha qiymat, ikkilamchi sanksiya, asosiy bozor*.

Murakkab birikma ko‘rinishidagi terminlar asosan uch so‘zdan iborat bo‘lib, moslashuvli va bitishuvli birikma ko‘rinishida bo‘ladi: *valyuta ayirboshlash shoxobchalari, yagona bozor kursi* (moslashuvli birikma). Murakkab terminlar orasida boshqaruvli birikmalar ham kuzatiladi: *valyuta sotish va sotib olish kursi*. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, murakkab birikmalar [bitishuv] + [moslashuv] qolipida shakllanadi.

Iqtisodiy diskursga oid matnlarning leksik individualligini ta’minlovchi vositalarning xususiyatlarini quyicha umumlashtirish mumkin:

*birinchidan*, publisistik iqtisodiy diskursga oid matnlarda mazkur sohaga oid terminlar tizimi mavjud;

*ikkinchidan*, publisistik iqtisodiy diskursga oid terminlar tuzilishiga ko‘ra sodda va tarkibli terminlarga bo‘linadi;

*uchinchidan*, publisistik iqtisodiy diskursga oid terminlarning katta qismi birikma tarzidagi terminlar bo‘lib, o‘zbek tiliga xos birikish usullari bilan shakllangan lisoniy birlik sifatida qaralishi lozim;

*to‘rtinchidan*, birikma tarzidagi terminlar soha lug‘atlarida birikma tarzida berilishi va izohlanishi lozim;

*beshinchidan*, sodda birikmalar o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub bo‘lib, umumiste’mol leksikaning ma’nosi maxsuslashuvchi asosida shakllangan terminlar ham kuzatiladi;

*oltinchidan*, sodda terminlar asosan ot turkumiga mansub, shuningdek, fe’ning harakat nomi shakliga oid;

*yettinchidan*, publisistik iqtisodiy diskursga oid terminlarning katta qismi ommaga tushunarli so‘zlar bo‘lib, kundalik hayotda ko‘p ishlatilgani sababli alohida izoh talab qilmaydi.

---

<sup>71</sup> <https://kun.uz/kr/56611936>(Murojaat sanasi: 18.07.2024)

*O'zbek tili publisistik iqtisodiy diskursida grammatik qurilmalar.* Publisistik iqtisodiy diskursda kundalik iqtisodiy islohotlar tahlilga tortilishi bois bunday diskursda o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllari aralash qo'llanadi (ilovadagi matnlarda turli zamon shakllari alohida ranglar: o'tgan zamon shakli – sariq, hozirgi zamon shakli – yashil, kelasi zamon shakli – pushti rang bilan ajratildi). Chunki bo'lib o'tgan voqea tahlil qilinib, bugungi holat baholanadi va kelajakda bo'ladigan prognoz beriladi. Shu sababli gaplar mazmuni zamon bilan chegaralangan deb bo'lmaydi.

O'zbek tilida publisistik iqtisodiy diskursga oid ilovada ko'rsatilgan 5 ta matn tahlilidan shu ma'lum bo'ldiki, matnlarning ko'p qismidagi gaplarda kelasi zamon grammatik shakli va mazmuni ko'proq uchraydi, buning natijasida, matnda iqtisodiy holatni “bashoratlash mazmuni” ustunlik qiladi. Undan keyingi o'rinda o'tgan zamon grammatik shakli va mazmuni ifodalanib, bunday ifoda usuli “iqtisodiy holat haqida xabar berish va baholash” mazmunini ifodalaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, publisistik iqtisodiy diskursda hozirgi zamondagi kesimlar nisbatan kam miqdorda uchraydi.

*Ingliz tili publisistik iqtisodiy diskursining individual xususiyatlari.* Ingliz tili publisistik iqtisodiy diskursining individual xususiyatlarini tahlil qilish uchun “Forbes”, “Smallbusiness” kabi jurnallardagi 5 ta ommabop maqola matni (4.6, 4.7, 4.8, 4.9., 4.10-ilovadagi matnlar) obyekt sifatida tanlab olindi. Mazkur maqolalardagi individual leksikani aniqlashda onlayn semantik analizator<sup>72</sup> hamda qo'lda tahlil usullaridan foydalanildi. Quyida maqolalar tahliliga o'tamiz.

“Forbes” jurnalidagi “*Shunsaku Sagami, founder and CEO of Tokyo-listed M&A Research Institute, leveraged AI to give his M&A business a competitive edge. Now the 33-year-old is looking to replicate the success abroad*”<sup>73</sup> maqola matni (4.6.-ilovadagi matn) ham publisistik iqtisodiy diskursga mansub. Mazkur matnda sof iqtisodiy terminlar nisbatan ko'proq qismni egallagan (30 ta birlik), shuningdek, bu matnning iqtisodiy diskursga oidligini ko'rsatib turuvchi 25 ta leksema umumiste'mol leksikaga mansub bo'lib, ular ham mazkur matnning diskursiv mansubligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ingliz tilida publisistik iqtisodiy diskursga oid obyekt tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, mazkur diskursning individualligini ta'minlovchi dastlabki vositalar iqtisodiy terminlar bo'lib, ular kelib chiqishiga ko'ra, umumiste'mol leksikadan ma'nosi maxsuslashish orqali hosil bo'lgan hamda sof terminlarga ajraladi. Iqtisodiy terminlarning semantik tarkibi shaxs, narsa-predmet, jarayon-hodisa, belgi hamda o'rin-joyini bildiruvchi terminlardan iborat.

Bobning uchinchi bo'limida *o'zbek va ingliz tillarida rasmiy-iqtisodiy diskursning lingvistik modeli va o'ziga xos xususiyatlari* tahlilga tortilgan.

